

**Jumanazarova Rayxon Jaloliddinovna
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi**

HALIMA AHMEDOVA IJODIDA DARAXT OBRAZINING MOHIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek she’riyatining iste’dodli vakili Halima Ahmedova ijodi faoliyati tahlilga tortilgan. Jumladan, shoira Halima Ahmedova ijodida borliq, rang baranglik, yashillik, tinchlik, daraxt obrazi orqali ifodalangani o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Daraxt, borliq, yashillik, ijod, kuzgi bog‘lar, tinchlik, rang baranglik.

Аннотация: В данной статье анализируется творчество Халимы Ахмедовой – талантливой представительницы узбекской поэзии. В частности, было изучено, что бытие, цвет, зелень, покой, дерево выразились в творчестве поэтессы Халимы Ахмедовой.

Ключевые слова: Дерево, существование, зелень, творчество, осенние сады, покой, цвет.

Annotation: In this article, the work of Halima Akhmedova, a talented representative of Uzbek poetry, is analyzed. In particular, it was studied that existence, color, greenness, peace, and tree were expressed in the work of the poetess Halima Akhmedova.

Keywords: Tree, existence, greenness, creativity, autumn gardens, peace, color.

Ijod qilgan insonning his tuyg‘ulari uning yaratgan asarlarida namoyon bo‘ladi. Chunki ijodkor yaratgan asarlari orqali hayotning go‘zal manzaralarini akslantira oladi. Shoira Halima Ahmedova ijodini kuzatar ekanmiz, unda borliq, yashillik, tinchlik, rang baranglik, tabiiylik ufurayotganligini sezamiz. Ijodkorning faoliyati o‘zining jozibaligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki shoira asarlarida hayotga tuyg‘u ko‘zi bilan qaraydi va o‘zining ichki dunyosiga olib kira oladi. Unda turfa xil hissiyotlar mavjlanadi. Halima Ahmedova she’rlarida hayotni tuyg‘ulari asosida ta’riflaydi. Ular tiniq, jarangdor so‘zlarda ifodalangani bois barcha kitobxonni diqqatini jalb eta oladi.

Shoira shunday yozadi:

Vujudni xokisor etdi alanga,

Yaproqni kuydirdi tiyran bo‘zlarim.

Qayta **daraxt** bo‘lib yuksatarmanmi,

Tuproqqa to‘lganda ishqli ko‘zlarim?

Alanga vujudni kuydirsada, shoira hohlaydiki, qalb yaroqlarini qayta yashillikka burkashni, ko‘zlar tuproqqa to‘la bo‘lsada unda ish bor, umid bor.

Yongan yuragimni ko‘maman o‘zim,

Yaproqlar bandida qolar dog‘larim.

Bir kun **daraxt** bo‘lib yuksalsam, Alloh,

Meni tanigaymi kuzgi bog‘larim?!

O‘z vujudidagi yongan yuragini o‘zi ko‘mish holati tasvirlanadi. Bu holat qanchalik achinarli, shoira shunchalik mahorat bilan ta’rif keltiradiki, hattoki, yaproqlarda qalb dog‘larim qolib ketdi deb yozadi. Men yana qayta daraxt bo‘lib unib chiqsam, o‘sha bog‘ meni taniydimi deya ta’rif beradi.

Shoiraning “O‘g‘limga darsliklar” she’rida tabiat darsiga bag‘ishlangan jumlalar quyidagicha ta’riflanadi:

Har bitta daraxtda bir dil yashaydi,

Tiqilgani sari o‘sadi ko‘nglim.

Ularga quloq sol, ularni tushun,

Daraxtlar aldashni bilmaydi, o‘g‘lim.

Har bir daraxt bir insonga qiyoslanadi, yillar o‘tgani sari inson ko‘ngli yashnab o‘sadi, o‘sgani sari esa ularni kuzatamiz, tushunamiz va anglaymizki, insonlar aldagani kabi daraxtlar aldashni bilmas.

Jajji yuragingda kimning sog‘inchi,

Sezaman, ne qilay, boshqadir yo‘lim.

Senga dadangdan ham mehribon, yaqin,

Daraxtlar nomardlik qilmaydi, o‘g‘lim.

Inson qalbida, yuragida qancha sog‘inch, iztirob, alanga bo‘lmasin daraxtlar xiyonat qilmay o‘z yaproqlarida asraydi, mehribon bo‘lib sekin shivirlaydi. To‘kiladi, yangilari paydo bo‘ladi. To‘kilganlari o‘zi bilan sog‘inchimizni olib ketadi, yangi paydo bo‘lganlari esa, bizni eshitishda davom etadi.

Jasur bo‘l, ko‘zingda ko‘rmay sira yosh,

Har qanday alamni ichingga yut jim.

Do‘stlardan azizroq, do‘stlardan baland,

Daraxtlar hech qachon sotmaydi, o‘g‘lim.

Shoira ushbu satrlar orqali daraxtlar buyuk ekanligi,yashillik, tabiat, borliq bir ilohiy mo‘jiza ekanligini ta’kidlaydi, daraxtlarga qancha alam, g‘amlarmizni to‘ksak ham bizni hech kimga sotmasligi, insonlarni o‘z bag‘riga olishi, oftobni qizdirgan nuriga o‘zi kuyib qovjisadasa, bizni o‘z bag‘rida saqlashi, hattoki, do‘stdan ham yaqinroq, do‘stdanda balandroq ekanligini ifodalaydi.

Qachondir barvasta yigit bo‘lursan,

Toleingni ko‘rib to‘lgaydir ko‘nglim.

Ulardan sadoqat sabog‘ini ol,

Daraxtlar xiyonat qilmaydi, o‘g‘lim.

Daraxtlardan sadoqat sabog‘ini ola olsak qani edi, daraxtlardek xiyonat qilmaslikni bilsak edi, shundagina insonlarning toleyi baland, iymoni but, barvasta ko‘ngil sohibi qiyofasida tasvirlanadi. Shoiraning ijodida yana quyidagi bir chiroyli satrlarni kuzatamiz:

Daraxt edim, egilmas **daraxt**,

O‘sardim nur emganim sayin.

Yashil dunyo sog‘inchlarida

Bir kun xazon bo‘lmog‘im tayin.

Egilmas daraxtdek mag‘rur edim, quyoshning zarrin nurlaridan bahra olib o‘sdim, lekin, yashil dunyoning, olamning, borliqning sog‘inchlarida bir kun kelib xazonga aylanaman deya ta’rif beradi. Sog‘inch kuchli tuyg‘u ekanligi ta’riflanadi, insonning sog‘inch tufayli xazon kabi kuyishi tasvirlanadi.

Ko‘z yoshingni artib ol deya,

Xazonini tutadi **daraxt**.

Meni kuzga topshirib qo‘yib,

Sen qaylarda qolib ketding Baxt?

Bu satrlar orqali daraxtlar insonlarga qanchalik mehribon ekanligi tasvirlanadi. Inson ko‘z yoshini artish uchun daraxt o‘z barglarini tutadi. Yashillik ulug‘lanadi, tabiatning, borliqning bir mo‘jiza ekanligi ulug‘lanadi.

Daraxt, menga boqma achinib,

Baxtsizmanmi, baxtning qasrida

Men o‘zimni shunday yupatay

Yig‘layotgan osmon ostida.

Baxt qasrida ham ba‘zan baxtsizlikni yor qilib yashayotgan qalblar tilidan bayon qilinadi. Yomg‘irning yog‘ishi esa, yig‘layotgan ko‘z yoshlaridek ifodalanadi. Daraxt mening holimga achinmagin, sen orqali o‘zimni yupataman deya tasvirlanadi.

Halima Ahmedova she’rlarida hayotni tuyg‘ulari asosida ta’riflaydi. Uning hikoyalarida ham xuddi shu xususiyat ko‘rinadi. Shoira nasrdagi mo‘jaz bitiklarida ham kechinmalarini, ko‘rgan-

kechirganilarini tuyg‘ulariga tayanib tasvirlaydi. Shu boisdan ushbu hikoyalar xuddi she’r kabi taassurot uyg‘otadi. Shoira “Tuproqning tili” nomli hikoyasida ham daraxtlarga murojaat qiladi.

— Tuproqning tili ham bormi, ona?

— Tili bor, qizim. Dunyodagi bor gulu giyoh, daraxtlar, hatto fasllar ham uning tilida gapiradi. Ishonmasang, tinglab ko‘r.....

Hech narsani tushunmasdim. Ammo har kuni rayhonlarning, daraxtlarning gapirishini poylardim. Ammo ular «ikki» baho olishdan qo‘rqib javob bermaydigan o‘quvchilarday jim edi.....

Biz kitobxon sifatida shoira Halima Ahmedovaning ijodini o‘rganar ekanmiz, takrorlanmas ijod jilosini ko‘ramiz. Shoiraning she’rlaridan, hikoya va badiaalaridan ulkan ma’no olamiz, sevib mutoola qilamiz. Chunki, Halima Ahmedova insonlar qalbiga qaraydi, xotiralarga beriladi, tuyg‘ulari, kechinmalari, o‘zining bolalik dunyosini qalamga oladi.

Ular tiniq, jarangdor so‘zlarda ifodalangani bois kitobxonni o‘ziga mahliyo etadi. Shoira ijodida daraxt obrazining mohiyati shundaki, yam-yashil rang zimmasiga yuklanayotgan ma’nolar ma’naviy-axloqiy qadriyatlar sifatida, yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalilanlgan adabiyotlar:

1. Ahmedova H. “Erk darichasi” Adabiyot va san’at, 1996.
2. Ahmedova H. “Tiyramoh” Adabiyot va san’at, 2005.
3. Ahmedova H. “Tiyramoh” Adabiyot va san’at, 2011.
4. Ahmedova H. Yashil.-T.:O‘zbekiston, 2016
5. “Kitob dunyosi” gazetasi veb-sahifasi.
6. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasi, 2014 yil 6-son.